

Oliy ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yaratish konsepsiyasi

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Bugungi kunda respublikamizda 108 ta davlat oliy ta'lim muassasalari faoliyat olib bormoqda va ularda 1 mln 300 mingdan ortiq talabalarga tanlagan ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari bo'yicha davlat ta'lim standartlariga muvofiq bilim va ko'nikmalar berilmoqda.

Talabalarni fanga taalluqli bilim, ko'nikma va malakalar shakllanishiga, ijodiy qobiliyatlar rivojlanishiga xizmat qiladigan mazmunan va shaklan ta'lim turlariga (bakalavriat, magistratura) moslashtirilgan o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi.

So'ngi yillarda oliy ta'lim tizimidagi o'zgarishlar, ilm-fan va texnologiyalar rivoji, ta'lim sifatini ta'minlash, talabalarni fanga oid bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirishda ilg'or tajribalar asosida yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratish ustuvor vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Oliy ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yaratish tizimini zamon talablariga moslashtirish, ilg'or fan-texnologiya yutuqlarini tatbiq qilish va xalqaro ta'lim makoni bilan integratsiyani ta'minlash maqsadida oliy ta'lim uchun o'quv adabiyotlarini yaratishning yangi konseptual hujjatini ishlab chiqish taklif qilinmoqda.

Ushbu konsepsiya oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini samarali tashkil etish uchun yuqori sifatli, ilmiy asoslangan va zamonaviy o'quv adabiyotlarini tayyorlashni nazarda tutadi.

2. Oliy ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarini yaratish konsepsiyasi (keyingi o'rinlarda – Konsepsiya) o'quv adabiyotlarini rivojlantirish strategiyasining demokratik, huquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy yo'nalishlarida mamlakat taraqqiyotining ustuvor masalalariga asoslangan, shuningdek, soha bo'yicha ilg'or xalqaro tajribalar, jahon ilm-fani, uslubiyot, texnika va texnologiyalarning so'ngi yutuqlari, taraqqiyot tendensiyalarini hisobga olgan holda yaratilishi va talabning intellektual salohiyatini yanada yuksaltirishga xizmat qilishiga qaratilgan chora-tadbirlarni amaliyotga tatbiq etishni nazarda tutadi.

3. Ushbu Konsepsiyada quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

O'quv adabiyoti — oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim dasturlari, malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlari asosida muayyan o'quv fani bo'yicha zarur nazariy va amaliy bilimlar, o'quv materiallari, uslubiyot va didaktik

ma'lumotlar ilm-fan, madaniyat, texnika va texnologiyalarning zamonaviy yutuqlari va xalqaro tajribalar asosida bayon etilgan nashr;

Ekspert — Sohoni mukammal biladigan, sohaga oid respublika va jahondagi tendensiyalardan xabardor bo'lgan hamda sohaga oid ta'lim muassasasi, ilmiy muassasa va boshqa tashkilotlarda faoliyat yuritayotgan oliy ma'lumotli mutaxassis.

2-bob. Konsepsiyaning asosiy maqsadi, vazifalari hamda tamoyillari

4. Oliy ta'lim tizimini ilg'or pedagogik texnologiyalar asosida zamon talablariga javob beradigan, sohaning yetuk mutaxassisleri tomonidan tegishli tillarda sodda va tushunarli tayyorlanadigan, jozibali dizaynga ega bo'lgan, amaliyot bilan uyg'unlashtirilgan va talabalarga mustaqil ta'lim olish imkoniyatini beradigan o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash, shuningdek, ilmiy-tadqiqotlar asosida fanlar bo'yicha o'quv adabiyotlarini ishlab chiqish, mavjud o'quv adabiyotlarini zamonaviy talablarga muvofiq qayta ko'rib chiqish, o'quv adabiyotlarini tuzilishini yangilash, raqamli formatlarga o'tkazish, ularda QR-kod texnologiyasini qo'llash va masofaviy ta'lim platformalariga integratsiya qilish Konsepsiyaning asosiy maqsadi hisoblanadi.

5. Quyidagilar Konsepsiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

oliy ta'lim tizimi uchun tayyorlanadigan o'quv adabiyotlarini toifalashtirish;

bunda, boshqa ta'lim sohalari bo'yicha tayyorlanadigan (Iqtisodchilar uchun matematika, Texnik ta'lim yo'nalishlari uchun xorijiy til va h.k) o'quv adabiyotlarining yagona reestri shakllantiriladi.

AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya va Singapur kabi xorijiy mamlakatlarda o'quv adabiyotlarining tuzilishi va mazmuniga qo'yiladigan talablar asosida respublika oliy ta'lim muassasalari uchun yaratiladigan o'quv adabiyotlarini takomillashtirish;

yaratilayotgan o'quv adabiyotlarining mazmuni ta'lim olish, mustaqil va erkin fikrlash, olingan bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini talabalarda shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishini ta'minlash;

o'quv adabiyotlari tushunarli, sodda va ravon tilda yozilishi, ma'lumotlar talabalar tomonidan imkon darajasida oson va qiyinchiliksiz qabul qilinadigan, xotirada saqlanadigan tarzda berilishi hamda ta'lim oluvchilarning bilim va ko'nikmalarini nazorat qilish imkoniyatini yaratishiga qaratilganligini ta'minlash;

o'quv adabiyotlarini yaratishda plagiatni (ko'chirmakashlik) oldini olishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy qilish;

elektron o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan texnologik talablarni takomillashtirish;

o'quv adabiyotlari tayyorlashga jalb etiladigan mutaxassislarga qo'yiladigan talablarni belgilash;

o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga jalb qilinadigan professor-o'qituvchilar uchun moddiy va ma'naviy ta'minot asoslarini yaratish;

o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish va ekspertlarni rag'batlantirish tizimini joriy qilish;

davlat buyurtmalari hamda oliy ta'lim muassasalarida ehtiyoj yuqori bo'lgan o'quv adabiyotlarini yaratishda mualliflar tarkibini tanlov asosida shakllantirish amaliyotini joriy qilish;

o'quv adabiyotlarini nufuzli xorijiy oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari bilan birgalikda tayyorlash va chop etish tizimini yo'lga qo'yish;

o'quv adabiyotlarini oliy ta'lim muassasalari tomonidan muntazam nashr qilinishi va mualliflarning rag'batlantirilishini ta'minlash;

oliy ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash;

nashr etilgan o'quv adabiyotlarini muntazam ravishda axborot-resurs markazlariga bosma va elektron shaklda joylashtirib borish.

6. Quyidagilar Konsepsiyasining asosiy tamoyillari hisoblanadi:

o'quv adabiyotlari ilmiy-tadqiqot natijalari va sohadagi yutuqlar asosida tayyorlanishi hamda fanning eng so'ngi yutuqlari va texnologiyalari aks ettirish;

talabalarning qiziqishini oshirishga qaratilgan, amaliy masalalar va hayotiy real keyslar bilan shakllantirish;

ta'lim sohalari o'rtasida integrativ bog'liqlikda va fanlararo hamkorlikda tayyorlashni yo'lga qo'yish;

iqtisodiyot sohalari va mehnat bozori talablari asosida ishlab chiqarishdagi o'zgarishlar va talablar asosida tayyorlash;

o'quv adabiyoti, jumladan, darslikni kollegial, sohaning yetuk mutaxassislari tomonidan tayyorlash;

talabani bilim, ko'nikma va malakasini shakllantirish va baholash bo'yicha barcha ta'lim vositalarini qamrab olish.

3-bob. Konsepsiyaning asosiy yo'nalishlari

1-§. Oliy ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yaratishni takomillashtirish tartibi

7. Oliy ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlari yaratishni takomillashtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

o'quv adabiyotlarini tayyorlash va ulardan oliy ta'lim muassasalarida foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilash to'g'risida nizom ishlab chiqiladi;

oliy ta'lim tizimi uchun tayyorlanadigan o'quv adabiyotlari tofalashtiriladi hamda darslik va o'quv qo'llanmalarining tuzilishi bo'yicha namunaviy yo'riqnomalar ishlab chiqiladi;

o'quv adabiyotlarining tuzilishi va mazmuniga qo'yiladigan talablarni zamon talablariga mosligi va bugungi kun tendensiyalariga javob bera olishi nuqtayi nazaridan qayta ko'rib chiqiladi;

o'quv adabiyotlarini tayyorlashga jalb etiladigan mutaxassislariga qo'yiladigan aniq talablar belgilanadi;

o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga jalb qilinadigan professor-o'qituvchilar uchun moddiy va ma'naviy ta'minot asoslarini yaratiladi;

yaratiladigan o'quv adabiyotlari kredit-modul tizimi talablariga to'liq moslashtiriladi;

xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda o'quv adabiyotlarini tayyorlashda zamonaviy shu jumladan, sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash bo'yicha xalqaro konferensiyalar va seminar-treninglar tashkil etiladi;

o'quv adabiyotlarini (jumladan, darsliklar) aprobatsiyadan o'tkazish bosqichlari va nashr qilish shartlari belgilanadi;

yaratilgan o'quv adabiyotlarini sifat jihatidan baholash tizimi joriy etiladi;

elektron o'quv adabiyotlariga qo'yiladigan texnologik talablar ishlab chiqiladi;

har yili ta'lim sohalari bo'yicha so'ngi ilm-fan va texnologiyalarning yutuqlarini o'z ichiga olgan, ilg'or xorijiy tajribalar va raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tayyorlangan o'quv adabiyotlarini aniqlash, nashr qilish va o'quv jarayoniga keng targ'ib qilish hamda mualliflarni munosib rag'batlantirish maqsadida "Eng yaxshi darslik" va "Eng yaxshi o'quv qo'llanma" nominatsiyalari bo'yicha respublika tanlovlari tashkil qilinadi.

2-§. O'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish va o'quv jarayoniga joriy qilish mexanizmlarini takomillashtirish

8. O'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish jarayoni to'liq raqamlashtiriladi, xususan amaldagi o'quv adabiyotini ekspertizadan o'tkazish va nashr guvohnomasini olish platformasi (adabiyot.edu.uz) oliy ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi "HEMIS" va Yagona interaktiv davlat xizmatlari portaliga integratsiya qilinadi.

9. O'quv adabiyotlari ekspertizasi jarayonida ishtirok etadigan mutaxassislariga qo'yiladigan talablar belgilanadi, shuningdek, ularning mehnatiga haq to'lash fuqarolik huquqiy tisdagi shartnomalar orqali amalga oshirilishi yo'lga qo'yiladi.

10. Ekspertiza jarayonini quyidagi bosqichlarda amalga oshirish tartibi joriy qilinadi:

Ilmiy ekspertiza – o'quv adabiyotining ilmiy mazmuni, ya'ni undagi ma'lumotlarning aniqligi, ilmiy asoslanganligi va dolzarbligini baholash;

Pedagogik ekspertiza – didaktik tamoyillarga muvofiqligi, ta'lim jarayoniga mosligi va o'quvchilarning yosh xususiyatlari hisobga olinganligini baholash.

Til va uslubiy ekspertiza – Matnning tili va uslubi, tushunarlilik darajasini baholash;

Texnik ekspertiza – elektron o'quv adabiyotlar uchun texnik sifat, qulaylik va foydalanish imkoniyatlarini baholash.

11. Mahalliy va xorijiy ekspertlarni jalb etgan holda ta'lim sohalari kesimida o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish bo'yicha Konsepsiyaning 10-bandi talablariga muvofiq baholash mezonlari ishlab chiqiladi va joriy etiladi.

12. Ayrim ta'lim sohalari bo'yicha o'quv adabiyotlarini tayyorlash, ekspertizadan o'tkazish, nashrga ruxsat berish va chop etish jarayonini bosqichma-bosqich oliy ta'lim muassasalariga o'tkazish bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

13. O'quv adabiyotlarini davlat byudjeti mablag'lari hisobidan nashr etishga tavsiya berishning aniq talablari va mezonlari belgilanadi.

4-bob. Konsepsiyaning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar

oliy ta'lim muassasalari uchun yuqori sifatli va zamonaviy o'quv adabiyotlari yaratiladi;

ta'lim jarayonida o'quv adabiyotlarining samaradorligi oshadi;

talabalarning bilim darajasi va tajribasi yaxshilanadi;

o'quv adabiyotlari raqamli formatga o'tkazilishi va masofaviy ta'lim imkoniyatlarini kengaytiradi va oliy ta'lim qamrovi kengayadi;

o'quv adabiyotlarini tayyorlash va ulardan oliy ta'lim muassasalarida foydalanishga qo'yiladigan talablarni belgilash to'g'risida nizom ishlab chiqiladi;

oliy ta'lim tizimi uchun tayyorlanadigan o'quv adabiyotlarini toifalashtiriladi;

o'quv adabiyotlarini mazmun va sifat jihatidan zamon talablariga moslashtiriladi;

o'quv adabiyotlarini tayyorlashga jalb etiladigan mutaxassislariga qo'yiladigan talablar belgilanadi;

o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratishga jalb qilinadigan professor-o'qituvchilar uchun moddiy va ma'naviy ta'minot asoslarini yaratiladi;

o'quv adabiyotlarini ekspertizadan o'tkazish jarayonlarini takomillashtirish va ekspertlarni rag'batlantirish tizimi joriy qilinadi;

ta'lim sohalari bo'yicha tayyorlangan "Eng yaxshi darslik" va "Eng yaxshi o'quv qo'llanma"larni aniqlash va o'quv jarayoniga keng joriy qilish bo'yicha respublika tanlovlarini tashkil etish tizimi yo'lga qo'yiladi.